

## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2023 yil 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 34726 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,6 foizga o'sgan.

2023 yil yanvar-iyun oylarida 3126 ta kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129,3 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo (34,6 foiz), sanoat (14,2 foiz), qurilish (5,1 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (13,4 foiz), yashash va ovqatlanish (6,0 foiz) va boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

### 2023 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona  
va mikrofirmalar, birlikda**

|                        | <i>yanvar-iyun<br/>2022 yil</i> | <i>yanvar-iyun<br/>2023 yil</i> |
|------------------------|---------------------------------|---------------------------------|
| <b>Buxoro viloyati</b> | <b>2417</b>                     | <b>3126</b>                     |
| Buxoro sh.             | 577                             | 576                             |
| Kogon sh.              | 90                              | 155                             |
| <i>tumanlar</i>        |                                 |                                 |
| Buxoro                 | 205                             | 170                             |
| Vobkent                | 147                             | 234                             |
| Jondor                 | 201                             | 245                             |
| Kogon                  | 177                             | 266                             |
| Olot                   | 83                              | 155                             |
| Peshko'                | 104                             | 176                             |
| Romitan                | 243                             | 323                             |
| Shofirkon              | 140                             | 152                             |
| Qorako'l               | 128                             | 309                             |
| Qorovulbozor           | 59                              | 71                              |
| G'ijduvon              | 263                             | 294                             |

2023 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (576 ta), G'ijduvon (294 ta), hamda Romitan (323 ta), Buxoro (170 ta), Jondor (245 ta), tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'satkichni Qorovulbozor (71 ta) tumanida tashkil etilgan.

**2023 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va  
mikrofimalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida**




2023 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofimalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 18,4 foiz, Qorako'l tumani 9,9 foiz, Romitan tumani 10,3 foiz, Kogon tumani 8,5 foiz, Jondor tumani 7,8 foiz, G'ijduvon tumani 9,4 foiz, Vobkent tumani 7,5 foiz, Kogon shahri 5,0 foiz, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 2,3 foizni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofimalar, birlikda**

|                                             | yanvar-iyun<br>2022 yil | yanvar- iyun<br>2023 yil |
|---------------------------------------------|-------------------------|--------------------------|
| <b>Jami</b>                                 | <b>2417</b>             | <b>3126</b>              |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik<br>xo'jaligi | 344                     | 419                      |
| Sanoat                                      | 408                     | 445                      |
| Qurilish                                    | 141                     | 159                      |
| Savdo                                       | 750                     | 1080                     |
| Tashish va saqlash                          | 305                     | 460                      |


|                                                    | <i>yanvar-iyun<br/>2022 yil</i> | <i>yanvar- iyun<br/>2023 yil</i> |
|----------------------------------------------------|---------------------------------|----------------------------------|
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 163                             | 187                              |
| Axborot va aloqa                                   | 40                              | 71                               |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 58                              | 44                               |
| Boshqa turdagi xizmatlar                           | 208                             | 261                              |

**Yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foiz hisobida)**




2023 yil 1 iyul holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 32,6 birlikda, Buxoro shahrida 24,2 birlikda, Kogon tumanida 20,1 birlikda, Romitan tumanida 17,3 birlikda, Buxoro tumanida 11,2 birlikda va Peshko' tumanida 11,7 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 11,8-9,2 birlik oralig'ida Jondor, Kogon shahar, Shofirkon va Olot tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 8,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**2023 yil 1 iyul holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2022 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 14,6 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil yanvar-iyun oylarida bu ko'rsatkich 13,3 birlikka etdi va 2022 yilning shu davriga nisbatan 1,3 birlik past.

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda;)



**2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari  
tomonidan:**

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5377,4 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 36,6 foizi) yoki 2022 yil yanvar-iyunga nisbatan fizik hajm indeksi 99,5 foizni tashkil qildi;

- 13779,9 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,8 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,8 foizi) tashkil qildi;

- 6928,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 56,2 foizi) o'zlashtirildi va 2022 yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish sur'ati 126,8 foizini tashkil qildi;

- 4057,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 85,9 foizi) bajarildi va 2022 yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,6 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 74,5 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 101,4 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,1 foizi) tashkil qildi;

- 5350,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 59,6 foizi) 2022 yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 foizini tashkil qildi;

-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,9 foizi yoki 6791,4 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 101,5 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

- 66,2 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 45,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2022 yilning mos davriga nisbatan 19,1 mln.AQSH dollarga yoki 22,4 foizga kamaydi, mos ravishda 203,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 40,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2022 yilning mos davriga nisbatan – 50,0 mln.AQSH dollarga kamaydi.

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

|                                                                   | <i>O'lchov<br/>birligi</i> | <i>2022 yil</i> | <i>2023 yil</i> | <i>(+-)</i>  |
|-------------------------------------------------------------------|----------------------------|-----------------|-----------------|--------------|
| <b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b> | <b>birlik</b>              | <b>28549</b>    | <b>27024</b>    | <b>-1555</b> |
| <b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar</b>      | <b>birlik</b>              | <b>2417</b>     | <b>3126</b>     | <b>709</b>   |
| YAHM                                                              | foiz                       | 72,2            | 71,3            | 0,9          |
| Sanoat                                                            | foiz                       | 37,5            | 36,6            | -0,9         |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi                          | foiz                       | 99,0            | 98,8            | -0,2         |
| Investitsiya                                                      | foiz                       | 41,7            | 56,2            | 14,5         |
| Qurilish                                                          | foiz                       | 84,9            | 85,9            | 1,0          |
| Savdo                                                             | foiz                       | 93,3            | 91,9            | -1,4         |
| Xizmatlar                                                         | foiz                       | 61,0            | 59,6            | -1,4         |
| Yuk tashish                                                       | foiz                       | 90,6            | 90,7            | 0,1          |
| Yuk aylanmasi                                                     | foiz                       | 75,6            | 74,5            | -1,1         |
| Yo'lovchi tashish                                                 | foiz                       | 97,0            | 97,1            | 0,1          |
| Yo'lovchi aylanmasi                                               | foiz                       | 97,9            | 98,1            | 0,2          |
| Eksport                                                           | foiz                       | 61,6            | 45,1            | -16,5        |
| Import                                                            | foiz                       | 60,2            | 40,1            | -20,1        |

**2023 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida  
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi**



**2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar,  
xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning  
(fuqarolar mulki) ulushi**

|                                          | <i>Kichik tadbirkorlik<br/>sub'ektlari mahsuloti (ish,<br/>xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i> | <i>Kichik tadbirkorlik<br/>sub'ektlari mahsuloti (ish,<br/>xizmat) hajmida xususiy<br/>sektor ulushi,<br/>foizda</i> |
|------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 13779,9                                                                                 | 100,0                                                                                                                |
| Sanoat                                   | 5377,4                                                                                  | 99,6                                                                                                                 |
| Qurilish                                 | 4057,5                                                                                  | 37,0                                                                                                                 |
| Chakana savdo                            | 6791,4                                                                                  | 91,9                                                                                                                 |




### Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (861,7 mlrd.so'm), Shofirkon tumani (732,8 mlrd.so'm), Kogon tumani (574,5 mlrd.so'm) va G'ijduvon tumani (535,8 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Olot tumani (186,0 mlrd.so'm) va Peshko' tumanlarida (175,7 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

### 2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Shofirkon (95,4 foiz), Olot (93,2 foiz), Jondor (86,9 foiz), Vobkent (75,0 foiz), Kogon (70,3 foiz) tumanlari va Buxoro shahri (55,4 foiz) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Romitan (36,1 foiz) va Qorovulbozor (7,1 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2023 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Jondor (1779,5 mlrd.so'm), Buxoro (1624,9 mlrd.so'm), G'ijduvon (1537,1 mlrd.so'm), Qorako'l (1502,0 mlrd.so'm) va Peshko' (1238,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (50,7 mlrd.so'm) va Buxoro shaharlarida (165,3 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanida (380,3 mlrd.so'm) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da  
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (1802,7 mlrd.so'm), G'ijduvon (1214,2 mlrd.so'm), Qorako'l (630,9 mlrd.so'm) va Buxoro (582,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Olot tumani (200,4 mlrd.so'm), Qorovulbozor (127,8 mlrd.so'm), Kogon (98,0 mlrd.so'm) tumanida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1353,1 mlrd.so'm), G'ijduvon (887,2 mlrd.so'm), Jondor (371,2 mlrd.so'm), Buxoro (350,5 mlrd.so'm), Romitan (342,5 mlrd.so'm) va Peshko' (334,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati**



**2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda**

|                        | Sanoat      | Qishloq,<br>o'rmon va<br>baliqchilik<br>xo'jaligi | Investitsiya | Qurilish    | Chakana<br>savdo | Xizmatlar   |
|------------------------|-------------|---------------------------------------------------|--------------|-------------|------------------|-------------|
| <b>Buxoro viloyati</b> | <b>36,6</b> | <b>98,8</b>                                       | <b>56,2</b>  | <b>85,9</b> | <b>91,9</b>      | <b>59,6</b> |
| Buxoro sh.             | 55,4        | 98,9                                              | 59,0         | 83,0        | 84,6             | 37,1        |
| Kogon sh.              | 48,7        | 99,0                                              | 70,6         | 65,2        | 98,2             | 70,2        |
| tumanlar               |             |                                                   |              |             |                  |             |
| Buxoro                 | 48,2        | 99,8                                              | 56,8         | 97,3        | 99,6             | 79,8        |

|              | <i>Sanoat</i> | <i>Qishloq,<br/>o'rmon va<br/>baliqchilik<br/>xo'jaligi</i> | <i>Investitsiya</i> | <i>Qurilish</i> | <i>Chakana<br/>savdo</i> | <i>Xizmatlar</i> |
|--------------|---------------|-------------------------------------------------------------|---------------------|-----------------|--------------------------|------------------|
| Vobkent      | 75,0          | 99,9                                                        | 83,1                | 100,0           | 98,7                     | 56,6             |
| Jondor       | 86,9          | 99,7                                                        | 81,3                | 100,0           | 99,0                     | 78,4             |
| Kogon        | 70,3          | 96,0                                                        | 53,6                | 99,1            | 47,2                     | 75,6             |
| Olot         | 93,2          | 99,9                                                        | 41,6                | 73,4            | 98,2                     | 85,1             |
| Peshko'      | 49,1          | 98,8                                                        | 92,3                | 100,0           | 72,9                     | 71,2             |
| Romitan      | 36,1          | 96,6                                                        | 15,6                | 65,6            | 99,3                     | 71,2             |
| Shofirkon    | 95,4          | 99,6                                                        | 73,7                | 95,4            | 99,0                     | 77,8             |
| Qorako'l     | 55,2          | 98,8                                                        | 87,4                | 97,9            | 99,1                     | 77,2             |
| Qorovulbozor | 7,1           | 94,1                                                        | 48,4                | 30,7            | 99,5                     | 65,0             |
| G'ijduvon    | 45,0          | 99,2                                                        | 82,6                | 100,0           | 96,8                     | 82,2             |

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Shofirkon (95,4 foiz), Olot (93,2 foiz), Jondor (86,9 foiz), Vobkent (75,0 foiz), Kogon (70,3 foiz) tumanlarida va Buxoro shahri (55,4 foiz) tashkil etadi.


Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Qorako'l (87,4 foiz), Jondor (81,3 foiz), G'ijduvon (82,6 foiz), Peshko' (92,3 foiz) va Vobkent (83,1 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Vobkent (100,0 foiz), Peshko' (100,0 foiz), Jondor (100,0 foiz), G'ijduvon (100,0 foiz), Kogon (99,1 foiz) va Qorako'l tumanlari (97,9 foiz) tashkil etadi.

Chakana savdoda Buxoro (99,6 foiz), Qorako'l (99,1 foiz), Jondor (99,0 foiz) va Shofirkon (99,0 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Olot (85,1 foiz), G'ijduvon (82,2 foiz) va Buxoro (79,8 foiz) tumanlari tashkil etadi.

**2023 yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2023 yil II-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1585 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 42,5 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 49,3 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida 41,1 foiz va 54,3 foiz, xizmatlar sohasida 41,8 foiz va 52,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 29,5 foiz va 65,6 foiz, sanoatda 39,7 foiz va 49,8 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 10,5 foiz, qurilishda 8,2 foiz, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 4,9 foiz, xizmatlarda 5,7 foiz va savdoda 4,6 foizni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash  
2023 yil II -chorak uchun, foizda**



**Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda** qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida yaxshilanish 49,2 foiz, oʻzgarishsiz 47,5 foiz, yomonlashish 3,3 foiz, sanoat korxonalari yaxshilanishi 53,1 foiz, oʻzgarishsiz 43,6 foizi, yomonlashish 3,3 foiz, savdo yaxshilanish 54,3 foiz, oʻzgarishsiz 42,6 foiz, yomonlashish 3,1 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 54,2 foiz, oʻzgarishsiz 42,0 foiz, yomonlashish 1,8 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 56,7 foiz oʻzgarishsiz 40,3 foizi, yomonlashish 3,0 foiz kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o'zgarishlar  
istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.



**Statistik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlik** – jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

**Korxonaning faoliyatini tahlil qilish** – uning asosida korxona faoliyatini xar tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxona faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.

**Chakana savdo** – bu oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat. Ulgurji savdo – bu katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

**Tovarlarni realizatsiya qilish** – mahsulotni samarali sotishga qaratilgan ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

**Reklama** – bu xaridorlarning keng doirasi o'rtasida mahsulot to'g'risida ma'lumotni samarali tarqatish usuliga asoslangan reklama vositasining kommunikativ shakli.

**Tavakkalchilik** – kelajakda har qanday harakatlarni amalga oshirishda, qaror qabul qilishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar.

**Bozor** – bu savdo operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan turli shaxslar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar tizimi.